

O'ZBEKISTON-2030 STRATEGIYASINING YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHNING KAFOLATI

*Andijon davlat pedagogika instituti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

Muxtarjonov Asadbek

Andijon davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedra o'qituvchisi

Isroilov Davronbek

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston uchun rivojlanish strategiyasi bo'lgan "O'zbekiston-2030" tuzilganligi, uning maqsad va vazifalari bayon etilgan. Bugungi kundagi islohotlar ishtirokchisi sifatida strategiyaning asosini nimalar tashkil etishi haqida tushunchaga ega bo'lish haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston-2030, Yangi O'zbekiston, Konstitutsiya, ijtimoiy himoya, referendum, tashqi siyosat.*

Аннотация: *В этой статье изложена стратегия развития нового Узбекистана "Узбекистан-2030", ее цели и задачи. Идея заключалась в том, чтобы иметь представление о том, что лежит в основе стратегии как участника сегодняшних реформ.*

Ключевые слова: *Узбекистан-2030, новый Узбекистан, Конституция, социальная защита, референдум, внешняя политика.*

Annotation: *this article describes the formation of Uzbekistan-2030, the development strategy for the New Uzbekistan, its goals and objectives. As a participant in today's reforms, it has been considered to have an understanding of what constitutes the basis of the strategy.*

Keywords: *Uzbekistan-2030, New Uzbekistan, Constitution, social protection, referendum, foreign policy.*

Yurtimizda 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi tomonidan yoqlab ovoz berish orqali qabul qilinganligi, xalqimizning Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha orzu-umidlari va intilishlari o'z aksini topganligidan dalolat bermoqda. Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida ushbu strategiya tuzildi. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida quyidagi asosiy g'oyalar aks ettirilganligi inobatga olingan:

- barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish;
- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;
- aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;
- xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;
- mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash.¹

"O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan va amalga oshirilishi davom etayotgan, o'z ahamiyatini yo'qotmagan barcha maqsadlarga erishish va dolzarb vazifalar bajarilishi ta'minlash asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Ushbu strategiyada ta'lim, aholi salomatligini

¹ <https://lex.uz/docs/-6600413>

ta'minlash bo'yicha islohotlar, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha islohotlar, ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha islohotlar, suv resurslarini tejash bo'yicha islohotlar, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha islohotlar, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha islohotlar, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimidagi islohotlar, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish bo'yicha islohotlar, mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish bo'yicha islohotlar kabi yana bir qancha sohalarga e'tibor qaratilgan.

Endi ushbu islohotlar doirasida qanday rejalar amalga oshirilishiga e'tibor qaratamiz. Xususan, ta'lim sohasida davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini 100 foiz kompyuter sinfi bilan ta'minlash orqali tarbiyalanuvchilarda boshlang'ich kompyuter savodxonligi ko'nikmalarini shakllantirish, Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablarning ta'lim metodikasini barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quv jarayonlariga joriy qilish, ehtiyoj yuqori bo'lgan yo'nalishlar va olis hududlardagi abituriyentlar uchun pedagogik ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kadrlarni to'liq davlat granti asosida tayyorlash tizimini joriy qilish. Ichki va tashqi bozorlarda tijoratlashtirish natijasida yaratiladigan yangi innovatsion ishlanmalar sonini 2 baravarga oshirish kabilar reja asosida amalga oshirilmoqda. Shuningdek, aholi salomatligini ta'minlash bo'yicha islohotlar bo'yicha esa o'rtacha umr ko'rish davomiyligini 78 yoshga yetkazish, tibbiyotga yo'naltiriladigan mablag'lar hajmini 2 barobarga oshirish, chaqaloqlarda irsiy kasalliklar bo'yicha selektiv skrining tekshiruvlar qamrovini kamida 50 foizga oshirish, ta'lim va tibbiyot muassasalariga tarkibida transyog', tuz va shakar miqdori ko'p bo'lgan mahsulotlarni olib kirish, tayyorlash, sotilishini 100 foiz cheklash, Tibbiyot muassasalarini raqamlashtirishni 100 foizga yetkazish kabilar maqsad qilib olingan. Yoshlarning zamonaviy kasblar bilan mashg'ul bo'lishini ta'minlash uchun har bir viloyatda 1 tadan "Kreativ park"lar faoliyatini tashkil etish, ularga yiliga kamida 40 ming nafar yoshlarni jalb qilish kiritilgan. "Raqamli hukumat" dasturi doirasida 300 ta ustuvor

loyihalarni ishga tushirish, Toshkent shahri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar markazlarini beshinchi avlod aloqa tarmog‘i bilan qamrab olish kabilarga alohida e'tibor qaratilgan. Va yana bir nechta sohalar bo'yicha bir qator rejalar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.²

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga bee'tibor bo'lmasligimiz kerak deb hisoblayman. Biz ham ushbu islohotlar ijrochisi va ishtirokchisi sifatida o'z fikr-mulohazalarimizni bildirishimiz kerak. Mana shu "O'zbekiston-2030" strategiyasi Yangi O'zbekiston rivoji uchun qo'yilgan tamal toshlardan biri sifatida baho berishimiz, o'z hissamizni qo'shishimiz darkor!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son **farmoni**
2. <https://lex.uz/docs/-6600413>
3. <https://gov.uz/news/view/2502/>
4. Egamberdiyev, A., & Poziljonov, J. (2023). JADID MARIFATPARVARLARINING TA'LIM-TARBIYANI ISLOH QILISHDAGI O'RNI. Talqin va tadqiqotlar, 1(24).
5. Qosimbek o'g'li, P. J. (2023). JADID MAKTABI YANGI USUL MAKTABLARNING ROLI ASOS SOLINISHI. Journal of new century innovations, 29(4), 125-129.
6. Qosimbek o'g'li, P. J. (2023). JADIDCHILIKNING, JAMIYAT HUQUQIY O'ZLIGINI SHAKILLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN TARG'IBOT MAQSAD MUDDAOSI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 20(7), 39-42.

² <https://gov.uz/news/view/2502/>